



O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TARBIYA MASALASI

Karimova Latofat Yusuf qizi

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15184034>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 4th April 2025

Published: 9th April 2025

KEYWORDS

O'zbek maqollari, tarbiya, xalq og'zaki ijodi, axloqiy qadriyatlar, ota-ona, ustoz, yosh avlod, milliy tarbiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbek xalq maqollarida tarbiya masalasining ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqollarda xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, axloqiy-me'yoriy qarashlari va farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabati aks etgan. Ota-ona, ustoz, yoshi ulug' insonlarning o'rni, halollik, sabr, hurmat kabi fazilatlarining targ'ib etilishi maqollar orqali yoritib beriladi. Shu bilan birga, maqolalarda tarbiyaning oiladagi, maktabdagi va jamiyatdagi o'rni ham ochib beriladi. Ushbu maqola xalq og'zaki ijodi namunalarini tarbiya nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan.

O'zbek xalq maqollari ming yillik tajribaga tayanib, insonni to'g'ri yo'lga soluvchi, axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi va tarbiya jarayonida yo'riqnoma vazifasini bajarib kelmoqda. Har bir maqolning tub mohiyatida tarbiya, odat, axloq va ma'naviyat yotadi. Tarbiya masalasi xalqimiz uchun azaldan muhim bo'lgan. "Bola — loy, ona — kulol" maqoli bola tarbiyasida onaning o'rni naqadar ulkan ekanligini ko'rsatadi. Bola kichikligidanoq yaxshi odat va axloqqa o'rgatilmasa, keyinchalik uni to'g'ri yo'lga solish qiyin bo'lishi mumkin. "Egri butoqni niholida tobini ol" yoki "Beshikda tekkan, kafanda ketar" degan maqollar ham tarbiyaning erta boshlangan taqdirda samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Oiladagi tarbiyada ota-onaning mas'uliyati katta. Oila tarbiyaning boshlang'ich va asosiy maktabi hisoblanadi. "Onadan ko'rgan to'n bichar, otadan ko'rgan o'q yo'nar" maqoli ota-onaning harakati va xulqi bolaga qanchalik ta'sir qilishi haqida hikoya qiladi. Bundan tashqari, "Suv bilan ekin o'sar, tarbiya bilan odam" maqoli har bir insonning shakllanishida tarbiyaning o'rni qanchalik muhim ekanligini ifodalaydi. Ota-ona mas'uliyatini "Ona qilsa zo'rlikni, bola tortar xo'rlikni" kabi maqollar orqali ham anglash mumkin.

Maqollarda insonni yaxshi odatlarni shakllantirishga undovchi fikrlar ko'plab uchraydi. Masalan, "Buzishga o'rganma, tuzishga o'rgan" yoki "Odam bo'lar yigit odatidan ma'lum" kabi maqollar insonning fe'l-atvorini odatlari orqali baholash mumkinligini bildiradi. Shuningdek, yomon odatlardan ogohlantiruvchi "Illat ketar, odat ketmas" va "Tarki odat — amri mahol" kabi hikmatlar esa yomon odatlar kishining butun umriga ta'sir qilishini eslatadi. Yosh avlodni tarbiyalashda erta yoshdan chora ko'rish zarurligini ko'plab maqollar orqali bilib olish mumkin. "Daraxtga qarab, meva o'sar, otaga qarab, bola o'sar" yoki "Toyni ot qilguncha, egasi it bo'lar" maqollari tarbiya masalasiga beparvo bo'lishning oqibatlarini tushuntiradi. Shu bilan birga, "Bola ko'rganini qilar, ota — bilganini" kabi hikmatlar ota-onaning bolalarga ibrat

bo'lishi kerakligini anglatadi. O'zbek xalq maqollarida tarbiya masalasi boy hikmat va tajribaga ega. Maqollar nafaqat axloq-odob haqida so'zlaydi, balki jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitishda muhim o'rin tutadi. Ular tarbiyaning ildizlari oilada ekanligini, axloq va odatlarni erta yoshdan shakllantirish zarurligini va har bir inson o'zining yaxshi fazilatlarini orqali jamiyatga foyda keltirishi lozimligini o'rgatadi. Shu sababli, har bir oila va jamiyat tarbiya masalasiga katta e'tibor berishi kerak.

O'zbek xalq maqollarida tarbiya, axloq va odat masalalari ko'p yillik tajriba va hikmatlarga asoslangan. Bu maqollar nafaqat axloqiy me'yorlar, balki hayotdagi sinonim va antonim tushunchalarini ham o'zida mujassam etgan. Maqollar orqali tarbiyaning ko'p jihatlarini, yaxshi va yomon odatlar, o'zgarish qadriyatlar haqida mulohaza yuritish mumkin. Ma'lum bir tushunchalar va qadriyatlarining ifodalari ko'plab maqollarda sinonim sifatida ishlatiladi. Masalan:

1. "Bola ko'rganini qilar, ota — bilganini"¹ va "Ota g'ayrath bo'lsa, bola ibratli bo'lar" — Bu maqollar bola tarbiyasining ota-ona tomonidan qanday yo'naltirilishini ko'rsatadi. Birinchisi bola ko'rganini qilsa, ikkinchisi ota g'ayratli bo'lsa, bola ham unga ibrat oladi, degan ma'noda sinonim hisoblanadi.

2. "Ona qilsa zo'rlikni, bola tortar xo'rlikni" va "Bola — yoshidan, xotin — boshidan" — Bu maqollarning ham o'xshash ma'nosi bor: ota-ona va ularning mehnati bola hayotiga qanday ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Har ikkisi ham oilada tarbiyaning muhimligini ko'rsatadi, ammo birinchisi zo'rlik haqida, ikkinchisi esa boshqaruvni ko'rsatadi.

Ma'lum bir tushunchalarning ziddiyatli ma'nolari (antonimlari) orqali ham tarbiya haqida chuqurroq fikr yuritish mumkin:

1. "Yaxshi kishi yo'li bilan yursa, yomon kishi yo'li bilan yurar" va "Yaxshi kishi bolasi yuqoridan siy topar, yomon kishi bolasi tuyada ham it qopar" — Birinchi maqoladagi yaxshi va yomon yo'lining ziddiyatida bola tarbiyasining to'g'ri yo'nalishini anglash mumkin. Ikkinchi maqolda esa, yaxshi va yomon kishi farzandining holati, bola tarbiyasining natijasini ifodalash uchun antonim sifatida ishlatilgan.

2. "O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas" va "Yaramas odat ko'p bo'lar, eng yomoni — kunchilik" — Bu maqollarni ziddiyatli tarzda ko'rsak, birinchisi insonning o'rgangan yaxshiliklari doimo unga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi, ikkinchisi esa yaramas odatlarning tarbiya jarayoniga bo'lgan salbiy ta'sirini ifodalaydi.

Maqollarni o'zaro sinonim va antonim tarzda qaraganda, tarbiyaning turli bosqichlari va odam hayotidagi o'rnini haqida yaxshi xulosalar chiqarish mumkin. "Bola ko'rganini qilar" va "Bola tuqqaniki emas, tarbiyalaganniki" kabi maqollar, bir tomondan, tarbiya va o'rganishning zarurligini ko'rsatadi, boshqa tomondan esa, har bir inson o'zini qanday shakllantirsa, o'sha tarzda jamiyatga ta'sir ko'rsatishini bildiradi. O'zbek xalq maqollaridagi sinonimlar va antonimlar orqali tarbiya masalalarini chuqurroq tahlil qilish mumkin. Tarbiya, odat va axloq o'rtasidagi ziddiyatlar va o'xshashliklar, xalqimizning dono hikmatlari orqali bizga uzluksiz o'rganish va o'zgarishlar haqida fikr yuritishga imkon beradi. Shunday qilib, maqollar nafaqat ma'naviyatni, balki insoniylikni ham o'rgatadi. Tarbiya inson shaxsining shakllanishida asosiy o'rin tutuvchi omillardan biri bo'lib, uning axloqiy qiyofasi, jamiyat bilan munosabatlari va ma'naviy kamolotini belgilaydi. Tarbiya insonni yuksaltiruvchi kuch bo'lsa, tarbiyasizlik uning qadrini pasaytiradi. Tilimizda tarbiya va tarbiyasizlik tushunchalari turli nominativ birliklar, xususan, iboralar orqali ham ifodalanib, insonning ijtimoiy qiyofasini yorqinroq aks ettiradi.

¹ O'zbek xalq maqollari "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2005 155-bet

Tarbiyali insonlar ochiqko'ngilligi, samimiyligi, hurmatga sazovor bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday insonlarni tavsiflovchi quyidagi iboralar mavjud: Saxovat va samimiyat: qo'li ochiq², yuragi toza, yuragi pokiza, ochiq chehrali, ochiq yuz, sof dillik, sof ko'ngil, oq ko'ngillik, ko'ngli toza, ko'ngli pok. Bunday odamlar har doim yordamga shay bo'lib, boshqalar manfaatini ham e'tiborga oladilar. Hurmat va itoatkorlik: so'zini ikki qilmaslik, gap qaytarmoq, so'z qotmoq, bo'ynini xam qilmoq, gapiga kirmoq. Tarbiyali inson o'zidan kattalarni hurmat qiladi, ularga hurmatsizlik qilmaydi. Mehribonlik va hamdardlik: ko'nglini ochmoq, ko'nglini so'ramoq, ko'nglini o'tirmoq, ko'ngli yumshoq, ko'ngli bo'sh, yuragi pokiza. Bunday odamlar insonlarning holidan xabar olib, ularning dardiga sherik bo'lishadi. Shuningdek, tarbiyali inson har bir vaziyatga to'g'ri yondashib, o'zini tuta biladi. Uning xulq-atvori ijobiy bo'lib," istarasi issiq"," zuvalasi pishiq" kabi iboralar bunday insonlarning mustahkam xarakterini ifodalaydi.

Tarbiyasizlik insonning jamiyatdagi obro'siga putur yetkazadigan salbiy xususiyatlardan biridir. Bunday insonlar ko'pincha odob-axloq qoidalariga rioya qilmaydi, atrofdagilarga bepisand munosabatda bo'ladi. Quyidagi iboralar tarbiyasizlikning turli ko'rinishlarini aks ettiradi: Hurmat va insofning yo'qligi: yuziga oyoq qo'ymoq, yuziga oyoq bosmoq, gap qaytarmoq, so'zini ikki qilmoq. Bu kabi xatti-harakatlar insonning tarbiyasizligini ko'rsatib, u boshqalarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishini bildiradi. Yomon niyat va hasad: ichi qora, yuragi qora, ko'ngli qora, mehri tosh. Bunday insonlar boshqalarning yutuqlaridan xursand bo'lish o'rniga, ularga nisbatan yomonlik qilishga moyil bo'ladi. Odobsizlik va haddan tashqari o'zini yomon tutish: dog' tushirmoq, arpasini xom o'rmoq, kurakda turmaydigan, katta og'iz, yengil tabiatli, so'xtasi sovuq, og'zi katta, jini quymaslik. Bu iboralar insonning tarbiyasizlik natijasida qabul qilingan noto'g'ri qaror va harakatlarini ifodalaydi. Jazo va tanbeh: tanbeh bermoq, ta'zirini bermoq, adabini bermoq, jazosini bermoq. Tarbiyasizlikning oldini olish maqsadida bunday insonlarga tanbeh berish yoki jazolash zaruriy chora sifatida qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya insonning ma'naviy va axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. U insonni obro'-e'tiborli, hurmatga sazovor shaxsga aylantiradi. Turli nominativ birliklar orqali tarbiya va tarbiyasizlikning turli qirralari aks ettiriladi. Tarbiyali insonlar jamiyat uchun foydali bo'lib, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar, mehribonlik va saxovatni namoyon qiladilar. Aksincha, tarbiyasizlik jamiyatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, insonlar orasidagi ijtimoiy aloqalarni zaiflashtiradi. Shu sababli, har bir inson o'z tarbiyasiga e'tibor berib, jamiyatda hurmat va e'tibor qozonishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'afurov, N. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Jo'rayev, M. (2015). Maqollar – xalq donishmandligi manbai. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimov, I.A. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Tojiboyev, T. (2004). Tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Oliy ta'lim.
5. Usmonov, M. (2012). O'zbek xalq maqollarining didaktik xususiyatlari. – Filologiya masalalari ilmiy jurnali, №3, 45–50-betlar.
6. Qodirova, S. (2018). Xalq maqollarida axloqiy tarbiya masalalari. – Ma'naviyat va ma'rifat jurnali, №6, 28–31-betlar.

² O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati SH.Rahmatullayev "o'qituvchi" nashriyoti Toshkent-1978 302-bet